TIRIK TOVON:NIQOBLANGAN XUDBINLIK VA VIJDON UYG'ONISHI

Sindarova Rahbaroy Shuhrat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol davri o'zbek hikoyachiligining o'ziga xos tamoyillari, xususan, Jasur Kengboyning "Tirik tovon" hikoyasining badiiy-falsafiy tahlili yoritilgan. Muallif asar qahramoni Tilovning ruhiy kechinmalari, vijdon azobi va insoniy munosabatlardagi niqoblangan xudbinlik masalalarini tadqiq etadi. Hikoyadagi "ko'rlik" ramziy tushunchasining ikki xil ma'nosi — jismoniy nuqson va qalb ko'rligi o'rtasidagi ziddiyat ochib berilgan. Maqolada insonning o'z o'tmishi va qilgan amallari uchun ma'naviy mas'uliyati, shuningdek, poklanish va ikkinchi imkoniyat g'oyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: istiqlol davri, hikoyachilik, tahlil, ruhiy kechinma.

Аннотация: В данной статье рассматриваются специфические принципы узбекского повествования в период независимости, в частности, художественно-философский анализ рассказа Джасура Кенгбоя «Живая месть». Автор исследует духовные переживания героя произведения, муки совести и вопросы скрытого эгоизма в человеческих отношениях. Раскрываются два значения символического понятия «слепота» в рассказе – противоречие между физическим недостатком и слепотой души. В статье анализируется духовная ответственность человека за свое прошлое и поступки, а также идеи очищения и второго шанса с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: период независимости, повествование, анализ, духовный опыт.

Abstract: This article discusses the specific principles of Uzbek storytelling during the independence period, in particular, an artistic and philosophical analysis of Jasur Kengboy's story "Living Revenge". The author explores the spiritual experiences of the hero of the work, the torment of conscience, and the issues of hidden selfishness in human relationships. The two meanings of the symbolic concept of "blindness" in the story are revealed - the contradiction between physical defect and blindness of the soul. The article analyzes the spiritual responsibility of a person for his past and actions, as well as the ideas of purification and second chances from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: independence period, storytelling, analysis, spiritual experience.

Adabiyotimizning yorqin namoyandalaridan biri – Jasur Kengboyev Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan.Uning "Ovchining so'nggi ovi", "Shubha" , "Tirik tovon" , "Mung" , "G'urbatxona" , "Notanish ayol" kabi hikoyalari turli to'plam va markaziy nashrlarda chop etilgan.[1]

Ma'lumki, badiiy ijoddagi muayyan yo'nalish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Uning o'z asosi, tarixi bo'ladi. Uning asosi esa zamon hamda davrdagi o'zgarishdir. Xo'sh, bu o'zgarishlar istiqlol davri hikoyachiligida qanday yangilik va tamoyillarni keltirdi? Bular quyidagilardir: - janrda g'oyaviy-tematik ko'lam kengaydi; ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, oilaviy masalaga e'tibor kuchaydi; gumanistik mazmun va ruhiy tahlil avj oldi; milliy va o'ziga xoslik keng quloch yozdi; insonning hayotdagi o'rni, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyati

[1] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/jasur-kengboyev-1985

falsafiy yo'nalishda ochib berildi.[2]Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan "Tirik tovon "hikoyasida ham ma'naviy,oilaviy masala va ruhiy tahlilning o'rni kuchlidir.

"Tirik tovon" hikoyasi inson ruhiyatining murakkab qatlamlari,vijdon azobi va "savob"ortiga yashirilgan xudbinlik haqida teran mushohada etishga chorlaydi.Hikoya haqida tadqiqotchi Ibrohim Saidov:"Muallif asarga tanlagan voqea – dunyoning akssado ekanligi hech bir amal,hech bir harakatning javobsiz qolmasligi azaliy va abadiy mavzulardan.Hikoya syujeti shu buyuk haqiqat atrofida shakllanadi",-deya fikr bildirgan.[3]Bir so'z bilan aytganda,hikoyadagi voqea-insonning o'z qalbiga va bosayotgan qadamlariga nazar tashlashga undaydigan ko'zgu.

Hikoyaning asosiy qahramoni – Tilov hisoblanadi.Hikoyada tabiat va oiladagi holat bir-biriga hamohangdek ko'rinadi,sababi to'qsonbosdi mahali aynan qishning eng sovuq pallasiga to'g'ri keladi.Bu esa Tilovning ko'nglidagi sovuqlikka ishoradek.Asar qahramonining ismida ham qandaydir ramziylik bordek,xuddi u o'ziga dard tilab olgandek go'yo.Uning nima sababdan farzandiga nogironlik tashxisi qo'yilishi haqidagi o'y-xayollar qiynaydi.Agar bolasi shunday tug'ilsa ,otaona o'zini qanchalik aybdor sanashi,jigarbandining ham qiynalishi hikoyaning og'riqli nuqtalaridan biridir.Hikoya davomida Tilov aybni o'zidan qidirishga ,o'zini taftish qilishga tushadi.Shunda xayoliga "talabalik yillaridagi bir manzara chaqinday chaqnab ketadi".Uning ko'zi ojiz do'stlari – Qurbonjon va Behzodga munosabatini niqoblangan xudbinlik sifatida ko'ramiz.Tashqi tomondan u saxovatpesha ,nogiron do'stlariga yelkadosh ,"hotamtoy" bo'lib ko'rinadi. Biroq

[2] Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги низомий номидаги тошкент давлат университети Ҳакимжон Каримов Истиқлол Даври Адабиёти Дарслик "Янги нашр "нашриёти Тошкент-2010

[3] Jasur Kengboyev. Tirik tovon & Jasur Kengboyev hikoyasini o'qib | Xurshid Davron kutubxonasi https://share.google/bX4HvyvkExuCGsoul

ichki dunyosi bu "yaxshilik"dan o'z manfaati yo'lida foydalanadi. Ulardan xuddi "imtiyoz vositasi", "tekin yo'l chiptasi "sifatida ko'radi. Odamlarning rahmatini eshitish va o'zini boshqalardan yuqori his qilish unga zavq bag'ishlab,ma'naviy kibrni shakllantiradi. U hatto do'stlikni ham "biznes " ga aylantiradi – "o'ylasam , sizlarni ham biznes qilibman-a…" jumlalari orqali ko'rishimiz mumkin. Muallif hikoyada "ko'rlik" tushunchasini ikki xil ma'noda qo'llaydi. Qurbonjon va Behzodning ko'zi ojiz bo'lsa-da,ularning ko'ngli pok.Tilovning esa ko'zi ochiq,ammo qalbi ko'r.Taqdirning aylanishi ,oilasi boshiga tushgan mash'um xabar uni o'tmishiga nazar tashlash orqali vijdoni oldida o'zini so'roqqa tuta boshlaydi". Ay ,men o'zimni odam sanab yuribman-a…" kabi ichki fikrlari orqali uning qalb ko'zi ochilganini anglay olamiz.U o'z aslidan nuqson qidiradi,ammo baribir hamma narsa o'zining xatolari – "otilgan o'q "kabi qaytib kelayotgan o'tmishi ekanini tushunadi.Asarning yakuni kitobxonga ham,qahramonga ham umidbaxsh tuyg'ularni his etishga yordam beradi.Shifokorning adashgani va bolaning sog'lom tug'ilishi Tilovga berilgan ikkinchi imkoniyatdir. Tilovning so'nggi so'zlari –"O'zingga beadad shukr, Xudoyim" [4]– bu shunchaki quvonch emas,balki butunlay boshqa odam bo'lib uyg'onishning ifodasidir.

Hikoya barchamizga "Yaxshilikni nega qilyapmiz?" degan savolni berishga undaydi.Agar yaxshilik ortida minnat,manfaat yoki kibr bo'lsa,u savob emas, gunohga aylanadi.Muallif o'z xatolarini tan olmay va ulardan xulosa chiqarmay turib,haqiqiy xotirjamlikka erisha olmasligini ko'rsatib bergan.

Yozuvchining ijodiga adabiyotshunos Gulnoz Sattorova:"O'ylaymanki, muallif ba'zi nazardan qochirilgan jihatlarga e'tiborliroq bo'lsa,kelgusida yanada

[4] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/jasur-kengboyev/jasur-kengboev-tirik-tovon-hikoya/?lng=lat

yaxshi asarlar yozadi.Uning mazkur hikoyasi kishida shunday ishonch paydo qiladi",- deya yuksak baho berganlar.[5]

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Jasur Kengboyning "Tirik tovon" hikoyasi istiqlol davri o'zbek hikoyachiligidagi ruhiy tahlilning yorqin namunasidir. Muallif Tilov obrazi orqali inson qalbining eng chigal ko'chalari — vijdon azobi, ma'naviy kibr va niqoblangan xudbinlik masalalarini mahorat bilan ochib bergan.

Asardagi asosiy falsafiy xulosa shundan iboratki, inson tomonidan qilingan har bir amal — xoh u ezgu bo'lsin, xoh g'arazli — vaqt o'tib o'z egasiga "tovon" bo'lib qaytishi muqarrar. Hikoyada "ko'rlik" ramzi orqali ilgari surilgan g'oya shuni anglatadiki, jismoniy nuqson emas, balki qalb ko'rligi inson ma'naviyatini halokatga-yetaklaydi.

Tilovning o'z xatolarini anglab yetishi va o'zini taftish qilishi unga taqdir tomonidan berilgan ikkinchi imkoniyat — ma'naviy poklanish yo'li bo'ldi. Bu asar kitobxonni nafaqat yaxshilik qilishga, balki o'sha yaxshilikning ildizi qay darajada pok ekanligiga nazar tashlashga, har bir bosayotgan qadamimiz uchun ma'naviy mas'uliyatni his qilishga chorlaydi. Zero, haqiqiy xotirjamlikka faqat o'zining ma'naviy nuqsonlarini tan olib, ulardan xulosa chiqargan insonlargina erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/jasur-kengboyev-1985
2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги низомий номидаги тошкент давлат университети Ҳакимжон Каримов Истиқлол Даври
3. Адабиёти Дарслик "Янги нашр "нашриёти Тошкент- 2010

[5] Jasur Kengboyev. Tirik tovon & Jasur Kengboyev hikoyasini o'qib | Xurshid Davron kutubxonasi https://share.google/bX4HvyvkExuCGsoul

4. Jasur Kengboyev. Tirik tovon & Jasur Kengboyev hikoyasini o'qib | Xurshid
5. Davron kutubxonasi https://share.google/bX4HvyvkExuCGsoul
6. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/jasur-kengboyev/jasur-kengboev-tirik-tovonhikoya/?lng=lat
7. Jasur Kengboyev. Tirik tovon & Jasur Kengboyev hikoyasini o'qib | Xurshid Davron kutubxonasi https://share.google/bX4HvyvkExuCGsoul